



ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Shamansurova Zilola Abduvahitovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası professori (PhD)

email: z.shamansurova@tsue.uz

Sindarov Fazliddin Qaxramonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası assistenti

email: fazliddinst2020@gmail.com

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 9 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss9/a14	Mazkur maqola, O'zbekiston ta'lim tizimida, xususan maktab ta'limida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning muhim masalalarini ko'rib chiqish va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada, turli mamlakatlarning moliyaviy savodxonlik dasturlari tahlil qilinib, ularning O'zbekiston sharoitiga moslashishi yo'llari o'rganilgan. Tadqiqotda moliyaviy savodxonlik aholining iqtisodiy barqarorligi va farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, bu borada davlat va xususiy sektor hamkorligi, ta'lim muassasalarida maxsus kurslar va treninglar tashkil etish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv uslublardan foydalanish zarurligini qayd etilgan. Xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar O'zbekiston maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan amaliy dasturlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.
KEYWORDS	<i>Moliyaviy savodxonlik, ta'lim tizimi, maktab ta'limi, iqtisodiy fanlar, moliyaviy ta'lim strategiyasi.</i>

Kirish (Introduction/Введение)

Moliyaviy savodxonlik ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'plab rivojlangan va kuchli rivojlanayotgan davlatlarning maktab ta'lim dasturlariga kiritilgan. Ko'plab mamlakatlarda kredit resurslarining past foizli bo'lishi uy xo'jaliklarini ko'proq qarz olishga rag'batlantirmoqda. Natijada uy xo'jaliklarining qarz yuki global masshtabda yildan-yilga oshib bormoqda. Shu sababli bugungi kunda yoshlarga maktab davrlaridan moliyaviy bilimlarni berish orqali o'zlarining shaxsiy budjetlarini boshqarishni o'rgatish, investitsiya, sug'urta va boshqa moliyaviy instrumentlar haqida boshlang'ich tushunchalar berish kelajakda yoshlarni moliyaviy barqarorlik va farovonlikka erishishning asosiy vositasi sifatida ko'rilmoqda. Moliyaviy savodxonlik deyilganda, to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilish va pirovardida individual moliyaviy farovonlikka erishish uchun zarur bo'lgan moliyaviy bilim, ko'nikma, munosabat va xatti-harakatlarning kombinatsiyasini anglatadi. Moliyaviy savodxonlik yakuniy maqsad emas, moliyaviy farovonligini oshirish vositasidir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы).

Moliyaviy savodxonlik hozirgi kunda global iqtisodiy barqarorlik va farovonlikka erishishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Bu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsning moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini egallaganlik darajasi. Lusardi va Mitchell [1] tadqiqotlari moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy ahamiyatini o'rganib, uning shaxsiy farovonlik va iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini baholab ko'rsatdi. Atkinson va Messy [2] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar esa OECD/INFE (International Network on Financial Education) dasturi doirasida moliyaviy

savodxonlikni baholash natijalarini taqdim etdi va moliyaviy bilimlarning aholi farovonligiga ta'sirini tahlil qilgan.

Moliyaviy savodxonlikni o'quv dasturlariga integratsiya qilish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. OECD [3] moliyaviy savodxonlik ta'limini maktab dasturlariga kiritish usullari haqida ma'lumot beradi va bu jarayonning turli mamlakatlarda qanday amalga oshirilishini tahlil qilgan. Mandell [4] o'z tadqiqotlarida AQSh maktablarida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etishni tavsiya etgan.

Kanada va Yaponiya davlatlarining moliyaviy savodxonlik ta'limidagi tajribalari bu borada yaxshi natijalar ko'rsatgan. OECD [5] va APEC [6] hisobotlari ushbu mamlakatlarda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun qabul qilingan strategiyalar va dasturlarni batafsil o'rganilgan. Kanadada moliyaviy savodxonlik dasturlari maktabgacha ta'limdan boshlab, bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, Yaponiyada qisqa muddat ichida moliyaviy ta'lim berish samaradorligi oshirilgan.

O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikning hozirgi holati, mavjud muammolar va imkoniyatlar tahlili davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi va Xalq Ta'limi Vazirligi tomonidan taqdim etilgan hisobotlar aholining moliyaviy bilim darajasini oshirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot beradi. World Bank [7] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar esa O'zbekistonda moliyaviy ko'nikmalarni oshirish uchun taklif qilingan strategiyalarni batafsil bayon etgan.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun samarali strategiyalar va yondashuvlar tahlili davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirishni, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni va interaktiv usullarni tatbiq etishni o'z ichiga oladi. Lusardi va boshqalar [8] tadqiqotlarida moliyaviy

bilimlarning ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikka qarshi kurashdagi o'rnini ko'rsatilgan bo'lib, ushbu bilimlarni oshirish orqali iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish mumkinligi ta'kidlangan.

Moliyaviy savodxonlikka oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy bilimlar va ko'nikmalarni oshirish shaxsiy va ijtimoiy farovonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha samarali choratadbirlarni amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va interaktiv usullarni tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotimiz maktab o'quvchilarini turli o'yinlar orqali moliyaviy bilimlarni o'rgatish orqali moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganamiz. Bu borada ulkan tarixiy tajribaga ega bo'lgan Kanada va Yaponiya davlatlarining pedagogik tajribalari bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Maktab o'quvchilari doirasida moliyaviy savodxonlik ta'limini berishda Kanada va Yaponiya ta'lim tajribasini o'rganish uchun bir qancha sabablar mavjud. Birinchidan, Kanada ham kattalar ham yoshlar moliyaviy savodxonlik darajasi bo'yicha jahon mamlakatlari o'rtasida yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Bu borada Kanadaning uzoq yillik tarixiy tajribasi katta va shu sababli bu tajribani mukammal o'rganish holda O'zbekiston uchun mos keladigan qismlarini tanlab olish va amaliyotga joriy etish istiqbolda yoshlar o'rtasida moliyaviy ta'limni targ'ib qilishni osonlashtiradi. Ikkinchidan, Yaponiyaning bugungi global taraqqiyotiga asosiy sabab ta'lim ekanligi barchaga ma'lum. Lekin shunday bo'lsa-da, Yaponiya maktab ta'limida moliyaviy savodxonlik ta'limini berib boshlaganiga 2-3 yil bo'lmoqda. Qisqa davr davomida mamlakat bu boradama'lum birijobiy natijalarga erishmoqda. Yaponiya maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlik ta'limini berish tajribasini o'rganish orqali maktablarda moliyaviy savodxonlik ta'limini berishni nima bilan boshlash kerakligini va qisqa vaqtda qanday qilib yaxshi natijalarga erishish mumkinligini o'rganishimiz mumkin. Albatta, bu O'zbekiston maktablarida boshlang'ich va o'rta sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilarga moliyaviy ta'lim berish jarayonini osonlashtirish va tezlashtirish uchun xizmat qiladi.

Olingan natijalar (Results/Результаты).

Tadqiqot davomida erishilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston maktablarida moliyaviy savodxonlik ta'limini berishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va mos deb hisoblanganlarini maktab ta'limiga joriy qilish juda muhim. Shuningdek, bu jarayon ta'lim usullarini aniqlash va vaqt hamda resurslarni tejashga yordam beradi. Maktablarda moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etish zarur. Bu kurslar turli yoshdagi o'quvchilar uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarur. Bu jarayon zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullarni tatbiq etishni o'z ichiga olishi zarur.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

Xalqaro ko'rsatkichlarga ko'ra, Kanada aholisi dunyodagi eng moliyaviy savodxon davlatlardan biri hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, Kanada aholisining yosh tarkibi bo'yicha ham kattalar [9] ham yoshlar [10] dunyodagi eng yuqori moliyaviy savodxonlik darajasiga ega. Kanada hukumati aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun Kanada Moliyaviy iste'molchilar agentligi (The Financial Consumer Agency of Canada's (FCAC's)) tomonidan 2015-2020-yillarda "Moliyaviy savodxonlik bo'yicha milliy strategiya" va "2021-2026-yillarga mo'ljallangan moliyaviy savodxonlik milliy strategiyasi" qabul qilingan bo'lib, bu strategiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ushbu strategiyalar barcha yoshdagi aholini moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, Kanada maktab ta'limini ham qamrab oladi.

Kanada federal davlat hisoblanadi. Har bir federal hukumat davlatning umumiy siyosatidan chiqmagan holda mustaqil siyosat yuritadi. Mamlakatdagi har bir shtat o'zining mustaqil ta'lim tizimiga ega. Shuning uchun shtatdagi ta'lim dasturlari bir-biridan farq qiladigan jihatlari mavjud. Maktab o'quvchilariga moliyaviy savodxonlik bilimlari ba'zi shtatlarda matematika yoki ijtimoiy fanlar doirasida o'qitilsa, ba'zi shtatlarda darslardan bo'sh vaqtda aholida kurslar tashkil etish orqali o'qitildi, ba'zi shtatlarda esa moliyaviy ta'limning asosiy manbai sifatida

"moliyaviy savodxonlik kunlari" o'tkaziladi. Shuningdek, federal hukumatlar tomonidan o'rta maktab o'quvchilarining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun turli moliyaviy savodxonlik dasturlari muntazam ravishda amalga oshiriladi. Maktab o'qituvchilari o'quvchilarni moliyaviy bilimlarni o'qitish uchun turli usullardan foydalanadi. Interaktiv simulyatsiyalar, amaliy misollar va turli moliya institutlaridan amaliyotchi mutaxassislar ishtirokida davra suhbatlari uyushtirish orqali o'quvchilarni moliyaviy bilimlarini olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirib orqali moliyaviy savodxonlik bilimlari beriladi. Bugungi kunda ko'plab moliyaviy operatsiyalar raqamli ko'rinishga o'tganligi sababli Kanada maktablarida raqamli moliya ko'nikmalarini ham o'quvchilarga samarali tarzda o'qitish yo'lga qo'yilmoqda.

Kanada ta'lim tizimi 4 bosqichni: maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, o'rta ta'lim (kollej va texnikum) va maktabdan keyingi ta'lim bosqichlarini o'z ichiga oladi. Kanada maktab ta'limi tizimi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida Shvetsiya, Finlandiya, Daniya va Germaniyadan keyingi 5-o'rinda turadi. Maktabgacha ta'lim majburiy emas, maktab ta'limi 6 yoshdan boshlanadi.

Maktab ta'limi 2 bosqichga bo'linadi va shtatlarga qarab ta'lim davomiyligi 11 yoki 12 yil davom etadi.

- boshlang'ich bosqich

- o'rta bosqich:

Boshlang'ich bosqichda 6 yoshdan 12-13 yoshga bo'lgan bolalar 1-8-sinflarda ta'limini olishadi.

- O'rta bosqich ham 2 ga bo'linadi.

- oraliq bosqich (intermediate education)

- yuqori bosqich (high school education)

- O'rta bosqich 9-12 -sinflarni qamrab oladi.

Mamlakatning 2020-yilgi ta'lim dasturiga binoan 1-8-sinf o'quvchilariga moliyaviy savodxonlik bilimlarini berish majburiy etib belgilangan. Kanadagi har bir federal hududning ta'lim tizimi bir-biridan farq qilgani bilan moliyaviy bilimlarni o'rgatishda barcha sinflar bo'yicha umumiylik mavjud. Moliyaviy bilimlar matematika, ijtimoiy fanlar yoki turli kurs va tadbirlar doirasida turli musobaqa va o'yinlar vositasida interaktiv usullarda berilishidan qat'iyy nazar har bir sinf darajasida ma'lum bir bilimlarni berishga ixtisoslashgan bo'lishi zarur. Quyiida har sinf doirasida berilgan talablarni ko'rib chiqamiz.

1-sinf o'quvchilari Kanada tangalari, kupyuralari va veksellarini va ularning qiymatini bilish, shuningdek ularni solishtirish olishi kerak.

2-sinfda o'quvchilar pulning qiymatini hisoblay olishi zarur. Bir xil qiymatdagi pulni turli kupyura va tangalar orqali ifodalashni o'rganadi. Misol uchun, turli xil qiymatga ega bo'lgan tanga va qog'oz pullar, shuningdek, veksellardan foydalanib turli kombinatsiyasidan foydalanib 1, 10 yoki 100 Kanada dollari miqdoriga yetkazish o'rgatiladi.

3-sinfda o'quvchilar aniq miqdorni summalarini o'z ichiga olgan olgan oddiy operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur qiymatlarni hisoblab, pul haqidagi tushunchalarni rivojlantirishi zarur.

4-sinfda o'quvchilar tovar va xizmatlar uchun pul to'lashning turli usullaridan foydalanishni, shuningdek, iste'molchilar buyumi turli savdo nuqtalaridagi narxlarini solishtirib xarid qilishni o'rganishadi.

5-sinfda o'quvchilar yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida pul o'tkazishning turli usullari, masalan, elektron pul o'tkazmalari va cheklar bilan tanishadilar. Ular aqliy matematika va boshqa strategiyalardan foydalangan holda, dollar va sentlarda baholangan buyumlar bilan bog'liq naqd pulli operatsiyalar uchun zarur bo'lgan umumiy xarajatlarni va o'zgarishlarni hisoblab chiqadilar. O'quvchilar buyumning eng yaxshi qiymatini qanday aniqlashni o'rganadi. Masalan, 1 dollarga beshta olma sotib olsa arzoniga tushadimi yoki 75 sentga uchta olma sotib olsa arzoniga tushadimi? – degan masalalarni hisoblab javob topadi. Bundan tashqari, o'quvchilar shaxsiy budjetlarni tayyorlash, kredit va qarz tushunchalari bilan tanishadi.

6-sinfda turli mahsulotlar va xizmatlar uchun to'lovning turli usullaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari o'rganiladi. O'quvchilar moliyaviy maqsadlarning har xil turlarini o'rganadilar, ushbu maqsadlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlaydilar va tavsiflaydilar va ularga erishish uchun qadamlarni belgilaydilar. O'quvchilarga foiz stavkalari tushunchasini, uni hisoblash usullari o'rgatiladi. Banklar va boshqa moliya institutlari tomonidan taklif qilinadigan foiz stavkalari va to'lovlarini o'rgatiladi. Shuningdek, ular qanday qilib savdo qilish, qarz olish va qarz berishda qanday qilib moliyaviy resurslarni taqsimlash mumkinligini va taqsimlash usullari turli amaliy o'yinlar orqali dars jarayonlarida o'rgatiladi.

7-sinfda o'quvchilar xalqaro valyuta kurslarini Kanada dollariga nisbatini hisoblash va valyuta kurslari qanday ishlashini tushuntiriladi. Ular moliyaviy resurslarni taqsimlash va rejalashtirishning sodda birlamchi usullarini o'rganadilar. Shuningdek, o'quvchilar dars va dars jarayonlaridan tashqari tashkillashtirilgan o'yinlar orqali foiz stavkalari jamg'arma va investitsiyalarga qanday ta'sir qilishi haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, ular qarz olish va uning bahosini o'rganadilar. Turli banklarning kredit stavkalari va kreditlar uchun to'lovlar hajmini solishtirish orqali arzon qarz topish yo'llarini o'rganadi.

8-sinfda o'quvchilar o'zlarining moliyaviy maqsadlariga erishish uchun reja tuzishni va muvozanatli budjetlarni saqlash yo'llarini aniqlashni o'rganadilar. O'quvchilar iste'molchilar pul sarflaganda o'z pullarini olishlari mumkin bo'lgan turli usullarni solishtiradilar, masalan, mukofot dasturlari yoki savdodan foydalanish. O'quvchilar texnologiya (masalan, elektron jadval dasturi) yordamida oddiy va murakkab foiz tushunchalarini o'rganadilar va qiziqish uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishga qanday ta'sir qilishini tushuntiradilar.

O'quvchilar moliyaviy maqsadlarga erishish uchun reja tuzishni va muvozanatli budjetlarni saqlash usullarini aniqlashni o'rganadilar. O'quvchilar iste'molchilar turli mahsulot va xizmatlarni sotib olish uchun xarajat qilganida ular to'layotgan pulning bir qismini qanday qilib qaytarib olishlari mumkinligini, masalan, turli xil bonus yoki chegirmalardan foydalanish kabi turli usullarni solishtiradilar. Shuningdek, o'quvchilarga oddiy va murakkab foizlar tushunchalarini texnologiya yordamida (masalan, elektron jadval dasturi) o'rganadilar va foizlar uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishga qanday ta'sir qilishini tushuntiradi.

Kanada ta'lim tizimiga asosan maktab o'quvchilari 9-sinfdan boshlab o'rta bosqichda ta'lim olishadi (shtatlarga qarab bu 11-12-sinflarni qamrab oladi) va bosqichda ta'lim jarayoni bir muncha murakkablashib boradi.

Bu bosqichda o'quvchilarni moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan o'yinlar quyidagi maqsadlarga erishish uchun mo'ljallangan bo'lishi zarur:

- moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish uchun shaxsiy va korxona moliyani boshqarishni, masalan, budjetlar bilan ishlashni va aktivlarning qadrsizlanishi va qadrlanishini tushunishni o'rganish;
- turli moliyaviy vaziyatlarni tahlil qilish va matematikadan foydalangan holda moliyaviy bozorlarni tahlil qilish va qarorlarni qabul qilish: (masalan, fond bozoridagi o'zgarishlarni tushunish);
- foiz stavkalari, boshlang'ich to'lovlar va boshqa omillar xarid qarorlariga qanday ta'sir qilishini o'rganish;

Umuman olganda, Kanadada so'ngi yillarda ommaviy moliyaviy savodxonlikni, xususan, maktab o'quvchilarini moliyaviy savodxonligini oshirish uchun ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ko'plab moliya institutlari o'zlarining sayt va platformalarida maktab o'quvchilar uchun darslarda, moliyaviy savodxonlik kurslarida va turli tadbirlarda moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun turli o'yinlarni ishlab chiqqan va bulardan foydalanish barchaga bepul tarzda taqdim etiladi. Maktablarda eng ko'p o'ynaladigan o'yinlar qatoriga Birja o'yini, Cashflow 101, Monopoliya, Moliyaviy futbol, Pay Day, Money Metropolis va Budget Challenge kabi o'yinlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Kanada ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni o'quv dasturining ajralmas qismi sifatida qabul qilingan va o'quvchilarning moliyaviy jihatdan ongli qarorlar qabul qilishga tayyorlashga katta e'tibor beradi. Bu yondashuv yoshlarning moliyaviy mustaqillikka erishishiga va kelajakda barqaror moliyaviy hayot kechirishini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Yaponiya ta'lim tizimining rivojlanishi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 8-o'rinda turadigan davlat hisoblanadi. Yaponiyada 2022-yili voyaga yetganlik yoshi 20 yoshdan 18 yoshga tushirilishi bilan maktablarda moliyaviy savodxonlik darslarini majburiy etib belgilandi.

Yaponiya maktablarida moliyaviy savodxonlik muhim ko'nikma hisoblanadi va so'ngi yillarda bunga yanada ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Yaponiya Banki 2017-yilda aholining moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash uchun 18-79 yosh oralig'idagi 25 000 nafar aholidan so'rovnomma o'tkazdi. Bu so'rov natijalariga ko'ra, ta'lim darajasi, daromad, yosh va kasbiy holat moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash uchun muhim faktorlar hisoblanadi [11]. Yaponiyada 2022-yilda olib borilgan tadqiqotlar doirasida o'tkazilgan so'rovnomada ma'lum bo'lishicha, Yaponiya aholining 36% foiz stavkalari, inflyatsiya va risklarni

diversifikatsiya qilish tushunchalari bo'yicha ma'lum bilimlarga ega ekan. Bu natijaga asosan tadqiqotchi olimlar guruhi Yaponiyada moliyaviy savodxonlik darajasi past degan xulosaga kelishgan [12]. Yaponiyaning markaziy va mahalliy hukumatlari moliya institutlari bilan hamkorlikda moliyaviy ta'limni iste'molchilar ta'limini asosiy tamoyiliga aylantirish orqali maktab yoshdagi bolalardan tortib katta yoshdagi aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni yaxshilash uchun strategiya ishlab chiqilgan. [13]

Yapon xalqida riskli aktivlarga investitsiya kiritish orqali boylik orttirishdan ko'ra, mehnat bilan topilgan pulni jamg'arma sifatida saqlash an'anaviy fazilat sanaladi. Yaponiya banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil mart oyida yaponiyaliklar egalik qilgan moliyaviy aktivlarning 54,3 foizini naqd pul va depozitlar tashkil etgan, bu ko'rsatkich AQShda 13,7 foiz va Yevropada 34,5 foizni tashkil qilgan. Hukumat kelajakda iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan investitsiya resurslarini aholi qo'lida jamg'armalar evaziga qoplash va aholini investitsiyalarga jamg'armalarini yo'naltirish orqali moliyaviy farovonlikka erishishi uchun aholining moliyaviy savodxonlik darajasini maktab yoshdan oshirishga katta e'tibor qaratmoqda. [14]

Ko'plab yapon banklari, yirik kompaniyalar va moliya institutlari barcha yoshdagi aholining, xususan, maktab yoshdagilarni moliyaviy savodxonligini oshirish uchun o'zlarining dasturlariga ega. Ko'plab maktablar dars jarayonlarini tashkil qilishda mahalliy moliya institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. Bu moliyaviy savodxonlikni oshirishda ta'lim bilan amaliyotni integratsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Undan tashqari, mamlakatda yoshlikdan moliyaviy bilimlarni chuquro'rgatishga ixtisoslashgan maktab va kollejlarning soni ham yildan-yilga ortib bormoqda. [15]

Yapon maktablarida moliyaviy ta'lim turli fanlar dasturlariga integratsiya qilingan. Asosan yapon maktablarida moliyaviy savodxonlik darslari 7-12-sinflarda (Junior high schools (7-9) and High School (10-12)) o'qitiladi. Yaponiyada barcha o'rta maktablarda (junior high schools and high schools) o'quvchilar moliyaviy ta'limni ijtimoiy fanlar, Texnologiyalar va uy-xo'jaligi iqtisodiyoti, Fuqarolik bilimlari, Uy-xo'jaliklari iqtisodiyoti, Savdo kabi fanlari doirasida o'rganishadi [13]. Misol uchun, Uy-xo'jaligi iqtisodiyoti (Kateika) fani 5 sinfdan 10 yoki 11-sinf gacha bo'lgan barcha sinflar uchun majburiy fan hisoblanadi. Uy-xo'jaligi iqtisodiyoti fani oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, oilaviy munosabatlarni, bolalar tarbiyasi, iste'mol, moliyaviy ta'lim va ijtimoiy ta'minot kabi mavzular doirasida tashkillashtiriladi [16]

Boshlang'ich sinflarda (primary school) esa "Uy qurish kurslari" da o'qitiladi. O'quvchilar kundalik hayotda iste'mol xarajatlarini rejalashtirish va kelajak uchun jamg'armalarini investitsiya qilish kerakligini o'rgatish maqsadida moliyaviy ta'lim "Kundalik hayot rejalari" mavzusida o'qitiladi. Bu o'quvchilarda kundalik hayotlarini samarali boshqarish uchun kerakli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Yapon maktablarida moliyaviy bilimlarni samarali o'rgatish uchun turli interaktiv va innovatsion usullardan foydalaniladi. Xususan, dars va darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarga turli o'yinlar orqali moliyaviy savodxonliklarini oshirishga alohida e'tibor beriladi. Ko'plab o'yinlar maktab o'qituvchilari va moliya institutlarining malakali xodimlari hamkorligida ishlab chiqilgan bo'lib, ba'zilar planshet, telefon va kompyuterlar orqali o'ynalsa, ba'zilar turli o'quv materiallari, masalan, kupyuralar, obligatsiyalar va veksellar tasviri tushirilgan kartalar vositasida o'yin tashkillashtiriladi. [17]

Shuningdek, o'qituvchilar o'quvchilarni moliyaviy bilimlarini oshirish uchun yangi o'yinlarni ko'plab banklar, investitsion kompaniyalar, sug'urta kompaniyalari va moliya bozorining boshqa ishtirokchi muassasalari sayt va platformalaridan o'rganishi mumkin. O'yinlar maktabda o'qiyotgan barcha yoshdagi o'quvchilarga moslab ishlab chiqilgan bo'lib o'quvchilarni yoshiga qarab dars jarayonida mavzuga mos o'yinni o'ynash mumkin. Bundan tashqari, darslardan bo'sh vaqtda o'ynash uchun mo'ljallangan turli ilovalar ham ishlab chiqilgan. Maktablarda o'ynaladigan eng mashhur o'yinlar sifatida Monopoliya, Hayot o'yini, Birja o'yinlari, Iqtisodiy stol, sinf bozori, Moneypal va Taberu Kurasu o'yinlarini keltirishimiz mumkin.

Natijalar interpretatsiyasi (Discussion/Обсуждение)

Ushbu ilmiy ishni yozish davomida O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik ta'limini berish jarayoni bo'yicha quyidagi asosiy savollar paydo bo'ldi. O'zbekiston sharoitida maktab yoshidanoq moliyaviy savodxonlik ta'limini berishni qanday tashkillashtirilsa yuqori

samaradorlikka erishish mumkin? Yoshlarni moliyaviy savodxonlik darajasini maktab yoshidan oshirish uchun darslardan bo'sh vaqtlari ularni qanday jalb qilish mumkin? Bu borada xorijiy tajribalardan nimalarni o'rganishimiz zarur? Mazkur tadqiqotni amalga oshirish davomida ushbu savollarga ilmiy asoslangan javoblar shakllantirildi.

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston maktablarida moliyaviy savodxonlik ta'limini berishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va O'zbekiston uchun mos deb hisoblanganlarini maktab ta'limiga joriy erish juda muhim. Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish moliyaviy ta'limni berishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan pedagogik tadqiqotlar uchun sarflanadigan moliyaviy resurslarni va vaqtni tejashga imkon beradi. Allaqachon jahon amaliyotida mavjud bo'lgan amaldagi ta'lim usullari va texnikalarini O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy etish kelajak avlodni moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga, pirovardida moliyaviy barqaror va farovon avlodni yetishtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

- Maktablarda moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etish zarur. Bu kurslar turli yoshdagi o'quvchilar uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak.

- O'quvchilarga moliyaviy bilimlarni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu raqamli moliya ko'nikmalarini o'rgatishni o'z ichiga oladi.

- Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha davlat va xususiy sektorlar hamkorligini kuchaytirish lozim. Moliyaviy institutlar va ta'lim muassasalari hamkorlikda turli tadbirlar va musobaqalar tashkil etishi mumkin.

- Maktab o'quv dasturlariga moliyaviy savodxonlikni integratsiya qilish. Bu matematika yoki ijtimoiy fanlar doirasida o'qitilishi mumkin. Shuningdek, turli tadbirlar va "moliyaviy savodxonlik kunlari" tashkil etilishi tavsiya etiladi.

- Moliyaviy ta'lim resurslarini yaratish zarur. Bu kitoblar, darsliklar, onlayn kurslar va turli o'yinlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur tavsiyalar O'zbekiston maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan amaliy dasturlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan dasturlar va yondashuvlar yosh avlodning moliyaviy bilim va ko'nikmalarini oshirishda samarali bo'ladi. Bu tavsiyalar asosida ta'lim tizimini isloh qilish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shadi.

References:

1. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. *Journal of Economic Literature*.
2. Atkinson, A., & Messy, F. A. (2012). Measuring Financial Literacy: Results of the OECD / International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study. *OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions*.
3. OECD (2013). *Financial Education in Schools*. OECD Publishing.
4. Mandell, L. (2008). Financial Literacy of High School Students. In *Handbook of Consumer Finance Research*. Springer.
5. OECD (2017). *PISA 2015 Results (Volume IV): Students' Financial Literacy*. OECD Publishing.
6. APEC (2019). *Financial Education in Japan: Current State and Challenges*. APEC Policy Support Unit.
7. World Bank (2014). *Enhancing Financial Capability and Inclusion in Uzbekistan*. World Bank Report.
8. Lusardi, A., Michaud, P. C., & Mitchell, O. S. (2017). Optimal Financial Knowledge and Wealth Inequality. *Journal of Political Economy*.
9. OECD (2017). *Financial Education in Schools*. OECD Publishing.
10. OECD (2018) *Financial Education in Schools*. OECD Publishing.
11. Yoshino, Naoyuki Morgan, Peter J. Long, Trinh Q. "Financial Literacy in Japan: Determinants and Impacts", *Asian Development Bank Institute*, December 2017
12. Andrea Sticha, Shizuka Sekita. "The importance of financial literacy: Evidence from Japan", *Journal of Financial Literacy and Wellbeing* Volume 1, Issue 2, July 2023, pp. 244 — 262
13. Naoyuki Yoshino, "Financial Education in Japan", *Asian Development Bank Institute (ADBI) Senior Advisor Financial Research Institute*, FSA
14. <https://www.usnews.com/news/best-countries/rankings/well-developed-public-education-system>
15. <https://www.japantimes.co.jp/news/2023/03/19/national/teaching-financial-literacy/>
16. <https://cbu.uz/uz/about/central-office/divisions/moliyaviy-savodxonlikni-oshirish-va-bank-mutaxassislarini-qayta-tayyorlash-departamenti/>
17. <https://finlit.uz/..>